

**Umumta'lim maktablarida "Yerning shakli va o'lchamlari" mavzusini  
zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitilishi**

***F.S.Meliboyeva***

*QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari*

*kafedrası katta o'qituvchisi*

***SH.G`Urdushova - talaba***

***Annotatsiya:*** Ushbu tezisdá 5-sinflar uchun "Yerning shakli va o'lchamlari" mavzusini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan, g'oyaviy charxpalak metodi, kungaboqar metodi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarni geografiya faniga shu jumladan mavzuni chuqurroq o'rganishga qiziqitish yo'llari haqida ma'lumotlar bergan.

***Kalit so'zlar:*** Ko'rgazmali qurollar, g'oyaviy charxpalak metodi, kungaboqar metodi, zamonaviy texnologiyalar.

"Talim tog'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumtalim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini taminlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi. Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor. Bunday xolda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi.

Yerning shakli va o'lchamlari to'g'risida tushuncha. Yerning shakli juda murakkab va o'ziga xos xususiyatga ega. Yerning tabiiy yuzasi balandlik va chuqurlik, tog'lik va tekislik, tizma tog' va vodiylardan iborat. Yerning tabiiy shaklini aniqlash juda qiyin. Yerning shakli deganda, uning tabiiy shakli e'tiborga olinmaydi,

faqat uni matematik shakli tushuniladi. Ana shu matematik shakllardan yerning tabiiy shakliga eng yaqini geoiddir. Yerning shakli deyilganda quruqlikdagi past-balandliklar e'tiborga olinmaydi. Chunki yer yuzining ko'p qismi 71% okean va dengiz, oz qismi 29% quruqlik tashkil etadi. Yerni geoid shakli tortish kuchi ta'siriga, tortish kuchi esa yer bag'ridagi jinslarni joylanishi va zichligiga bog'liq. Yerning ichki tuzilishi bir xil bo'lsa, yer yuzasi silliq bo'lardi. Yerning ichki qismi har xil jinslardan tashkil topganligi uchun geoid yuzasi to'liqsimon bo'ladi. Bu fikrlarni faqatgina ma'ruza qilib ya'ni so'zlarda bayon qilishdan ko'ra xuddi mana shu ma'lumotlarni ko'rgazmali qurollar yordamida ko'rsatib masalan, yering shakli tushirilgan fotosuratlar, globuslardan foydalanib dars o'tilsa o'quvchilarga qiziqarli hamda yodida qolishi uchun ham foydali bo'ladi. Bularga qo'shimcha qilib esa hozirgi zamonaviy texnologiyalardan foydalanib mavzuga doir qiziqarli o'quvchilar yoshiga mos keluvchi video lar orqali dars tashkillansa dars samadorli yanada yuqori bo'lishiga xizmat qiladi.

Globus - Yerning juda kichraytirilgan shakli - modeli. Yevropada birinchi globusni 1492-yilda xaritashunos olim Martin Bexaym yasagan. Uning globusida Amerika, Avstraliya va Antarktida qit'alari ko'rsatilmagan. Chunki u vaqtda bu qit'alarning borligini yevropaliklar 16 bilishmas edi. Hozirgi vaqtda Yer yuzasidagi nimalar tasvirlanganiga va katta-kichikligiga ko'ra har xil globuslar mavjud.


G'oyaviy charxpalak metodi - O'quvchilarni kichik guruhlariga(4-5 kishidan iborat) bo'lib olamiz, har bir ishtirokchisiga toza oq varoq beriladi va bir xil savol beriladi (zarur bo'lganda o'qituvchi guruhning har bir ishtirokchisi uchun turli savollarni tayyorlashi va taklif qilishi mumkin). Barcha ishtirokchilar og'zaki fikr almashmasdan, o'zlarining varoqlariga savollarga bo'lgan javoblarning o'z-o'zidan aqliga kelib qoladigan ifodalarini yozadilar. Ifodalar yozilgan varoqlar vaqt tanqisligi sababli soat millarining harakatlanishi bo'yicha kichik guruhdagi qo'shnilarga uzatiladi. Bunday varoqni olgandan so'ng har bir ishtirokchi varoqda mavjud yozuvlarni takrorlamasdan, yangi yozuv kiritishi lozim. Har bir ishtirokchining varog'i yana o'ziga qaytib kelgandan so'ng ish yakunlandi. Ushbu bosqichda yozuvlar tahlil qilinmaydi, baholanmaydi va tanlab olinmaydi (ushbu uslubiyatning

"aqliy hujum" bilan ayrim o'xshashligi ana shunda namoyon bo'ladi). Ushbu metodni o'quvchilarga berilgan varoqlariga "Qadimgi xalqlar yerning shaklini qanday tasavvur qilishgan" ushbu savolga har bir guruh o'zlari bilgan ma'lumotlarini yozishadi. Masalan, Qadimgi yunonlar Yer yassi gumbazsimon shaklda bo'lib, uning atrofini juda yirik daryo okean o'rab turadi deb o'ylashgan. Hindistonda esa Yer yarimshar shaklida bo'lib, uni fillar ko'tarib turadi, fillar esa ulkan toshbaqa ustida turadi deb tasavvur qilishgan. Bizning O'rta Osiyo xalqlari esa Yerni ho'kizlar ko'tarib turishadi, ular Yerni bir shoxidan ikkinchi shoxiga olganda yer qimirlaydi deb o'ylashgan.

Kichik guruhlarda ishtirokchilar tomonidan ifodalangan javoblar va takliflarning muhokamasi o'tkazilib, ularning eng muhimlari va dolzarblari yakuniy ro'yxatga kiritiladi. Kichik guruhlar ishlanmalarining natijalari bilan almashish. Barcha kichik guruhlar navbatma-navbat yakuniy ro'yxatdan oz ifodalarini taklif etadilar. Agar bu ifoda yuzasidan boshqa guruhlar e'tiroz bildirmasalar u oxirgi ro'yxatga kiritiladi.

Ushbu metodning afzalliklari shundan iboratki o'quvchilar mavzuni chuqurroq mulohaza qilish orqali mavzu haqidagi bilimlarini o'z ongiga mustahkam joylab olishadi. Chunki har qanday ko'proq fikr-mulohaza olib borilgan ma'lumotlar inson ongidan chuqur joy egallaydi.

Kungaboqar metodi-o'quvchilar malum bir guruhlarga bo'linadi. O'rta "yerning shakli" muammosini tashlemiz. Har bir guruh kungaboqar yasab uning markaziga doira joylashtirib barglar yopishtiradi. Barcha guruhlar uchun umumiy bitta muammo yozilib doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib uni o'sha guruh guliga joylashtirib qo'yadilar. Bu uslubdan foydalanib dars o'tilganda o'quvchilar mavzuni chuqurroq o'rganishga hamda dars davomida faqatgina o'qituvchi emas balki o'quvchilarning faol ishtirok etishlari uchun zamin yaratildi. Kungaboqar metodi o'rqli o'quvchilar bilimlari mustahkamlanadi, ya'ni dars davomida eshitgan hamda ko'rgan ma'lumotlarini qanday yodda saqlab qolganlari tekshirildi va bu tekshirish natijasida olgan bilimlari yanada mustahkamlandi.



Ta'lim tizimida o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilsa ta'lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- \*maqsadga yo'naltirilganlik;
- \*o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- \*ta'lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- \*o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- \* o'quvchilarning o'quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv- uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

O'quvchilarga uyga vazifa qilib yangi mavzu orqali bilib olgan o'zlariga notanish so'zlar ya'ni atamalar mazmuni o'qib, ayrim tushunmagan atamaları bo'lsa ularni belgilab kelishlarini topshirdim. Bu orqali o'quvchilarni erkin fikrlar hamda o'z fikrlarini har qanday shart-sharoitlarda bayon qila olishi qobiliyatini

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

shakillantirish maqsadini ko'zlagan holda amalga oshirdim

Xulosa qilib shuni aytish lozimki " Yerning shakli va o'lchamlari" mavzusini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, g'oyaviy charxpalak metodi, kungaboqar metodi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga qiziqarli dars shakillantirish mumkinligi isbotlandi. Ushbu metodlarda foydalangan holda dars davomida o'quvchilar e'tiborini jalb eta olishga hamda ularning bilim olishlarini yanada osonlashtirishga erishildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. H.Vaxobov, N.R. Alimqulov, N.B. Sultonova „Geografiya o'qitish metodikasi”. T 2020 y.
2. Бердиев, Гайратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижонова Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 29-31.
3. Мелибоева, Феруза Солижонова, and Гайратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУҒОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука* 10-4 (2017): 31-34.
4. Мелибоева, Феруза Солижонова. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 34-36.
5. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europaische Fachhochschule* 1 (2016): 3-6.
6. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана"*. Самарканд. 2013.
7. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 73-76.